



ABU ISO TERMIZIYNING "SUNAN" ASARI HADISSHUNOSLIKDAGI MUHIM MANBA

Abdullayev Olimjon Obidjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7981962>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2023

Accepted: 28th May 2023

Online: 29th May 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam») eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganidek, «al-Jomi' al-kabir», («Katta to'plam»), «Sahih at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyni yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 milodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi' as-sahih» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980-yili Bayrutda nashr etilganligini ko'rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 milodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931-yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat al-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To'rt juzdan iborat bo'lgan bu asar 1979-yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyni (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug'tazi ala Jomi' at-Termiziy» (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bulardan tashqari Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Toyyib al-Madaniyni «Sharh Sunan at-Termiziy», Ahmad Muhammad Shokirning «Tahqiq va sharh Jomi' at-Termiziy» (o'ndan ikki qismi 1937-yilda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyni «Maorif sunan sharh sunan at-Termiziy» (uning birinchi qismi 1963-yilda Pokistonda nashr qilingan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyni «Sharh sunan at-Termiziy» nomli forscha sharhi, shuningdek Rashid Ahmad al-Kanuhiyni «Al-kavkab ad-durriy ala at-Termiziy» (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyni



ikki juzdan iborat «Al-Urf ash-shaziy ala Jomi' at-Termiziy» (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (u 1138-yilda vafot etgan) «Hoshiya ala sunan at-Termiziy» kabi sharhlarini ko'rsatish mumkin.

Avval eslatib o'tilganidek, hijriy uchinchi asr (milodiy to'qqizinchi asr) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarning sermahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

O'z ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan xayrli ishni Imom at-Termiziy chuqur mas'uliyat va katta idrok bilan davom ettirdi. Hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muhaddislardan biri darajasiga ko'tarildi. Abu Iso at-Termiziyning shoh asari bo'lmish «Al-Jomi' as-sahih» olim mashaqqatli mehnatining mahsuli sifatida hadis ilmida katta ahamiyatga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o'z asarini alohida-alohida boblarga bo'ladi, imkoni boricha har bir hadis roviylarini keltiradi. Har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab alohida ko'rsatadi. Oldinroq asarini «As-sunan» («Sunnatlar») nomi bilan («Sunan at-Termiziy») atalishini ham eslatib o'tilgandi. Bu nom bilan atalishiga asosiy sabablardan biri – unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko'p keltirilgan. Shular bilan bir qatorda asarda pand-nasihati, axloq-odob, go'zal xulq, fazilatlar xususida ham juda ko'p hadisi shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchramaydi, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi.

Tarkibiy jihatdan asar quyidagi boblarga bo'linadi. Undan tahorat, solat (namoz), zakot, ro'za, haj, janoza, nikoh, emizish, taloq, savdo-sotiq, qozilik ahkomlari, tovon to'lash, me'yor, soyd, qurbonlik, nazr-nuzur, imon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak (libos), taomlar, ichimliklar (al-ashriba), xayr-ehson va saxovat, tabobat, farzlar, vasiyatnomalar, xayrixohlik va taqdir, fitnalar chiqishi, bashoratlar, shahodatlar, zohidlar, jannat va jahannam sifatleri, ilm, izn so'rash, odob va axloq, masallar, Qur'on fazilatleri, qiroat, tafsir, duolar, manoqiblar (fazilatlar), illatlar haqidagi boblar keltirilgan.

Mana shu boblar asarda sarlavha tarzida bo'lingan bo'lib, bobga doir hadislar bo'lim mazmunini to'la-to'kis ifodalaydi. Ushbu bobga doir masala bo'yicha muallif bir qancha hadislarini keltiradi, so'ng bu masala yuzasidan boshqa ulamo faqihlarning fikrlarini ham batartib bayon etadi. Undan keyin rivoyat qilingan hadisning sahih, hasan, zaif yoki g'aribliigi darajasiga o'z munosabatini bildiradi. Shundan so'ng hadis roviylari, sanadleri va sanadning o'z ichiga olgan illatlari xususida o'z fikrini bildiradi.

Yuqorida aytilgan fikrga misol tariqasida Abu Iso at-Termiziyning «Al-Jomi' as-sahih» asarida «Tahorat» bobida «Safardagi va bir joyda muqim turgan kishi mahsisiga masx tortishi» haqida keltirilgan bir hadis xususida mufassal to'xtalib o'tiladi.

«Bizlarga Qutayba so'zlab berdi, unga Abu Uvona rivoyat qilgan, u Sa'yid ibn Masruqdan, u Ibrohim at-Tayamiydan, u Amir ibn Maymundan, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobitdan, u payg'ambar alayhissalomdan rivoyat qiladilar. Rasuli akramdan mahsiga masx tortish haqida savol bilan murojaat qilganlarida, payg'ambar alayhissalom: «Safardagi kishi uchun uch kecha-kunduz, bir joyda muqim kishi esa bir kecha-kunduz o'z mahsisiga masx tortadi», deb javob qilganlar. Yahyo ibn Mu'yn masx haqidagi Xuzaymadan rivoyat qilgan ushbu hadisni sahih (ishonchli) deydilar. Yuqorida zikri o'tgan Abu Abdulloh al-Jadaliyning ismi esa Abu ibn Abd bo'lib, ba'zan uni Abdurahmon ibn Abad ham deb atashar edi.



Imom Abu Iso at-Termiziy aytadilar: «Bu hadis hasan (ma'qul) va sahihdir». Shu bob haqida Ali, Abu Bakr, Abu Hurayra, Safvon ibn Ussol, Avf Ibn Molik, Ibn Umar va Jarirdan rivoyat etilgan hadis bor. Bizlarga Xudod rivoyat qildi, u Abul Ahvasdan, u Osim ibn Abi an-Nujuddan, u Zar ibn Xubayshdan, u Safvon ibn Ussoddan, u aytdi: «Rasululloh sallollohu alayhi vasallam safarida birga bo'lgan chog'larimizda bizlarga uch kechayu uch kunduzgacha choriq - mahsilarimizni yechmaslikka buyurdilar. Faqat junub bo'lgandagina yechib, katta va kichik tahorat singanda ham, uyqudan keyin ham yechmas edik». Abu Iso at-Termiziy aytdilar: bu hadis sahih va hasandir. Al-Hakam ibn Utayba va Hammud Ibrohim an-Naxayidan, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobitdan rivoyat qilgan hadis sahih emas. Ali ibn al-Madiyniy xabar beradi: «Menga Yahyo Ibn Sa'yid aytdi, unga Shu'ba shunday degan: Ibrohim an-Naxayi «Mash» haqidagi hadisni Abu Abdulloh al-Jadaliydan hech qachon eshitmagan. Zaida Mansurdan eshitganiga tayanib shunday deydi: «Biz Ibrohim at-Tayamiyning hujrasida o'tirgan edik, bizlar bilan birga Ibrohim an-Naxayi ham bor edi. Shunda Ibrohim at-Tayamiy bizlarga hadis rivoyat qildi, u Amr ibn Maymundan, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobitdan, u payg'ambar alayhissalomdan «Mahsi - choriqqa masx tortish» haqidagi hadis edi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy: «Ushbu bobdagi eng ma'qul hadis Safvon ibn Ussol tomonidan rivoyat etilgan hadisdir», deyдилar.

Abu Iso at-Termiziy aytadilar: Masx bobidagi bu so'z payg'ambar alayhissalomning aksari sahobai ulamolari va tobe'inlari hamda ulardan so'ng o'tgan Sufyon, Ibn al-Muborak, ash-Shofe'iy, Ahmad va Is'hoq kabi fuqaholarning so'zlaridir. Ular: «Bir joyda muqim turgan kishi bir kecha-kunduz, safardagi kishi esa uch kecha-kunduzgacha mash tortadi», deyдилar. Ba'zi bir ahli ilmlardan rivoyat qilishlaricha, ular mahs - choriqqa masx tortishda muddatni belgilamaydilar. Bu Molik ibn Anasning so'zidir. (Ammo) Abu Iso at-Termiziy aytganlar: «(Masx tortishda) vaqt (muddat) belgilash va unga rioya qilish to'g'ridir». Darhaqiqat, ushbu hadis (avval zikr qilinganidek) Safron ibn Ussoldan rivoyat qilingan edi.

Muallif roviylarning fikr-mulohazalari, payg'ambar alayhissalomga yaqin bo'lgan sahobalar va boshqa ulamolar fikriga tayanib hadis haqidagi fikrlarini bayon etadi. Asarga kiritilgan bir necha ming hadisni shunday tadqiq qilish muallifdan tinimsiz mehnat, sabr-toqat, irodani talab qilganligini tasavvur qilish qiyin emas.

Chunonchi, at-Termiziy kitoblarida bu xildagi hadislarining birmuncha ko'pligi uning benazir izlanishlaridan dalolatdir. Ushbu asar haqida muallifning o'zi ham: «Al-Jomi'»ni yozib tugatib Hijoz, Iroq va Xuroson olimlariga ko'rsatganimda, ular uni mamnunlik bilan bir ovozdan ma'qul topdilar. Rostdan ham kimning xonadonida bu kitob bo'lsa, go'yoki bu uyda payg'ambar alayhissalomning o'zlari so'zlayotgandek, - deb yozadi.

Mashhur olim Toshko'pirzoda Imom at-Termiziy faoliyatiga yuqori baho berib shunday yozadi: «Imom at-Termiziyning hadis ilmi sohasida ko'plab tasnifotlari bor. Ul zotning «As-Sahih» asari ushbu kitoblarning eng yaxshisi va g'oyat foydalisidir. Bu kitobda «sahih», «hasan», «g'arib» kabi turli xildagi hadislar bayon etiladi. Kitobning «Kitob al-ilal» qismi illatli hadislariga bag'ishlangan holda foydali mulohazalarni o'z ichiga olgan. Ushbu asarni mutoala qilgan har bir kishi uning noyob durdonalaridan bebahra qolmaydi».

At-Termiziy zamonidagi olimlar uning hadis ilmidagi xizmatlarini yuksak baholaganlar. Hadis imomlaridan biri Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiy «at-Termiziy hadis ilmida iqtido qilinadigan imomlardan biridir», deb yozsa, Taqiyuddin ibn Taymiya «Abu Iso at-



Termiziy birinchi bo'lib hadislarni sahih, hasan, zaifga taqsim qilgan olimdir», deb guvohlik beradi.

Hofiz ibn Rajab o'zining «Sharh ilal al-Jome'» nomli kitobida «bilgilki, Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib o'z kitoblarida hadisni sahih, hasan va g'aribga bo'lganlar», deb allomaning hadis ilmidagi xizmatlarini alohida ta'kidlaydi. At-Termiziy asarining barchaga – keng ommaga foydasi haqida al-Hofiz Abul-Fazl Muhammad ibn Tohir al-Maqdisiy (u 507-hijriy - 1113 milodiy yilda vafot etgan) «men uchun Imom at-Termiziyning «al-Jomi'» tasnifi Imom al-Buxoriy va Imom Muslim ibn al-Hajjoj asarlaridan ko'ra ham foydaliroqdir. Chunonchi al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ko'pincha faqat o'qimishli, ziyoli kishilargina foydalanadi. Ammo Abu Iso at-Termiziyning asaridan esa har bir istagan kishi bemalol foydalana oladi», - deb yozgan edi.

Shu narsani alohida qayd etish zarurki, Imom at-Termiziyning ushbu asarida hadis ilmining turli masalalari kabi roviylar masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu jihatdan mazkur asar muallifning boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi.

Imom at-Termiziy asarining ushbu foydali tomonlari xususida al-Hokim an-Naysoburiy «al-Madخال ila ma'rifat kitob al-iqlil», al-Maqdisiy «Shurut al-aimmat as-sitta» kabi asarlarida alohida ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga hadis ilmining istilohlarini yaratishda ham Imom at-Termiziyning hissasi katta. Hadis ilmiga doir istilohlarni o'rganishda asosiy manbalar hisoblangan «Ulum al-hadiys» («Hadis ilmlari») kitoblarida uchraydigan barcha istilohlar «al-Jomi'» asarida keng ko'lamda keltirilgan. At-Termiziy uslubiga taqlid qilib asar yaratgan mualliflardan Imom ad-Doruqutniyni (995-yilda vafot etgan) ko'rsatish mumkin. U o'zining ulkan asari «as-Sunan»ni yaratishda hadislarni turli toifalarga ajratib, ularni sahih, hasan va zaif darajalarda keltiradi. Shuningdek, Imom Abdulazim al-Munziriy (1258 yidda vafot etgan) ham «At-Targ'ib vat-tarhib»da Imom at-Termiziy uslubidan yurib har bir hadis haqida alohida fikr yuritadi. Imom at-Termiziy haqida alloma al-Idrisiy «al-Jomi'», «Tarixlar», «al-Ilal» kabi buyuk asarlar tasnif etdi. Hifzda (yodlashda) u haqida masallar keltiradilar». Muarrir Ibn al-Asir uning haqida: «Hadis ilmida iqtido qilinadigan buyuk olimlardan biri, u eng buyuk hofizlardan ham sanaladi», deb yozgan.

Imom at-Termiziy o'z ustozlari va safdoshi Imom al-Buxoriy suhbatida bo'lganda u at-Termiziyga «Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ko'proq», deb uning bilimi va aql-idrokiga yuksak baho bergan. Mana shu keltirilgan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, Imom at-Termiziy hadis ilmining ravnaqiga munosib hissa qo'shgan buyuk alloma bo'lgan. Shu bilan bir qatorda Imom at-Termiziy faoliyatiga bir qadar ta'na bilan qaragan olimlar ham bo'lgan. Uni sahih va hasan hadislar darajasi (rutbasi)ni aniqlashda biroz ko'ngli bo'sh, iltifotli bo'lgan. Bu shundan iboratki, ba'zi bir sahih yoki hasan hadislar ushbu darajaga loyiq bo'lmasa ham ularni sahih va hasan deb qabul qilgan deyiladi. Mana shunday at-Termiziyga ta'na bildirganlardan biri tarixchi Shamsuddin az-Zahabiy bo'lib, u o'z asari «Miyzon al-e'tidol»da bu e'tirozini bildirgan. Lekin Imom at-Termiziy ijodini chuqur o'rgangan qator tadqiqotchilar az-Zahabiy e'tirozlari aksar holda asossiz ekanligini ilmiy, asosli xulosalar bilan isbotlagan. Ayni vaqtda Imom at-Termiziyning o'zi ham ushbu asarni yozib tugatgach, o'z davrining yetuk olimlari hukmiga havola etgan va ular muhokamasidan o'tkazgan. Bu haqda alloma shunday hikoya qiladi: «Ushbu asarimni tasnif etib bo'lgach, Hijoz ulamolariga



taqdim etdim, ular ma'qulladilar, keyin Iroq ulamolariga ko'rsatdim, ular ham ma'qulladilar, so'ng Xuroson ulamolariga ko'rsatganimda, ular ham ma'qul topdilar».

Hadis ilmi bilan shug'ullangan muhaddislar hadislarni boblarga bo'lish (tabviyb)ga, tarojum va unvonlar (anoviyn)ga alohida e'tibor berganlar. Bu masalalar muallifdan yuksak salohiyatni talab qiladi. Boblarga bo'lish masalasi yaxshi hal bo'lgan asarlarning, bir tomondan, ilmiy ahamiyati katta bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu zayldagi asarlar ulkan amaliy ahamiyatga ham molikdir. Chunonchi, undan foydalanuvchi har bir kishi istagan masala bo'yicha kerakli ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Mana shu tarzda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik olti kitob eng ishonchli manba hisoblanadi. Ular olti kitob (kutub sitta) yoki olti sahih kitoblar (as-sihoh as-sitta) nomli bilan ataladi: al-Buxoriyning «Sahih», Muslim ibn Hajjojning «Sahih», at-Termiziyning «al-Jomi'», Abu Dovudning «as-Sunan», an-Nasoiyning «al-Mujtabo» yoki «as-Sunan» va Ibn Moja al-Qazviniyning «as-Sunan» asarlari.

Imom at-Termiziy hadislarni boblarga bulish (tabviyb)da ikki xil uslubga tayandi.

Birinchi uslub: Bir mavzuga, masalan, tahorat, zakot, nikohga oid turli-tuman masalalar va boblarni o'zida mujassam qilgan hadislarni umumiy bir unvon (sarlavha) ostida keltiradi. Masalan: Abvob at-tahorati an Rasululloh (Rasululloh aytganlaridan tahoratga oid boblar), Abvob az-zakot an Rasululloh («Rasululloh aytganlaridan zakotga oid boblar») va hokazo.

Ikkinchi uslub: Muayyan masalaga oid bir yoki bir necha hadislarni muallif dalolat uchun maxsus unvon (sarlavha) va bobda keltiradi. Bunday hollarda at-Termiziy ushbu bob mazmuniga oid bosh so'zga tayanib yozadi. Masalan: «Bob ma jaa fis-sivak» («Misvok (tish tozalovchi) xususida kelgan hadis...»).

Imom at-Termiziy hadislar mavzu bayonida bob (ko'pligi abvob) iborasini qo'llagan bo'lsa, ayni shu maqsadda Imom al-Buxoriy esa «kitob» lafzini ishlatgan. At-Termiziy muqarrar ravishda har safar bob (abvob)dan keyin «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam» iborasini qo'shib keltiradi.

Bu o'rinda har bir bob tarjimasida Imom at-Termiziy qo'llagan tariqa (yo'l, uslub)ni bilish alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash zarur, chunki mana shu tarojumlar oxir-oqibatda muallifning jiddi-jahdi, uning iqtidori va qolaversa fiqhiy chuqur bilimni ham ifodalaydi. Mana shu masalani muayyan darajada o'rganish Imom at-Termiziy tarojumlarini uch turga bo'lishni taqozo etadi:

*Birinchi*dan, tarojuming zohiriy tariqasini, bu uning mazmunidan ochiq oydin anglashilib u haqda hech bir fikrlash va mulohazaga ehtiyoj bo'lmaydi. *Ikkinchi*dan, istinbotiy (tadqiq qilib o'rganiladigan) tarojumlarki, ularning muayyan darajada (chuqur yoki bir qadar yuzaki) bahs va tafakkur vositasida o'sha bob mazmuniga mosligi idrok etiladi. *Uchinchi*dan, mursaliy (bo'sh, ochiq) qoldirilgan tarojumlar bo'lib, unda hadisning mazmuniga ishorat qiladigan unvon (sarlavha) bo'lmay faqat «bob» iborasi bilan chegaralanadi. Mana shu uch tariyqa (yo'l, uslub) tarojumlar Imom at-Termiziyning «al-Jomi'», shuningdek, Imom al-Buxoriyning «Sahih al-Buxoriy» asarida ham mavjuddirki, bu taqsimlash uslubi tarojumlarni chuqur tadqiq etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Eng avvalo zohiriy tarojumlar (at-tarojum az-zohira) haqida gapiradigan bo'lsak, bu xildagi tarojumlar at-Termiziyning asarida aksar hollarda uchrab, hatto uning asari, ba'zi mualliflar alohida ta'kidlaganlaridek, bu yo'nalishdagi eng qulay asarlardan sanalgan. Chunonchi, at-Termiziy asari bilan tanishgan har bir ilm tolibi bu holni osonlikcha fahmlaydi.



Muallifning «mo joa» (taalluqli, doir) yoki ko'p hollarda «babun ma jaa fi kaza» («falon masalaga doir bob») deb alohida ta'kidlashi mazkur tarojumning mazmun-mohiyatini aniq ko'rsatadi. Ushbu ibora Imom al-Buxoriy faoliyatida ham, garchand kam hollarda bo'lsa-da, kuzatiladi.

Imom at-Termiziy faoliyatida ko'p uchraydigan ushbu xildagi tarojumlar muayyan maqsadlarga qaratilgan va ma'lum ma'nolarni anglatadi. Ushbu masalada Imom at-Termiziy maslaklarini Imom al-Buxoriy maslaklari bilan muqoyasa qilishlikning ilmiy ahamiyati borligining guvohi bo'lish mumkin.

Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy asarlari zohiriy tarojumlarning qator maslaklarida bir-biriga mushtarak ekanligi ko'riladi. Bu hol quyidagi masalalarda ayon bo'ladi:

1. Umumiy xabariy (hikoyat) siyg'aga ega tarojum bo'lib, bunda tarojum, bobning mazmunini umumiy bir xabar, extimollik holatiga ishorat qilib so'ngra bobda keltirilgan hadis orqaligina asil maqsad ayon bo'ladi. Bu hol avvalroq qayd qilinganidek, Imom at-Termiziyda ko'p uchrab, Imom al-Buxoriyda kamroq keltiriladi.

At-Termiziyning «Al-Jomi'» asaridan bir misol keltiramiz. Asarda muallif «Bobun ma jaa fis-sivak» (Sivak) tishkovlagich, misvok xususidagi bobga doir «Agarki ummatimga qiyin bo'lmaganda edi har bir namozdan oldin misvok bilan tishlarini tozalashni buyurardim», degan hadis bilan tasdiqlaydi-ki, bu bilan asl murod-maqsadini aniq bayon qiladi. Yoki bo'lmasa kiyim haqidagi boblarda «Babun ma jaa fil-harir vaz-zahab» («shoyi va tillo xususidagi bob»)ga doir Abu Muso al-Ash'ariyning rivoyati asosida Rasulullohning «Shoyi (hariyr) va tillo buyumlarni kiyishni ummatimning erkaklariga harom va ayollariga halol qilganligini» hadisga tayanib ta'kidlaydi.

2. Xos (maxsus) xabariy (hikoyat) siyg'aga ega tarojum bo'lib, bundagi bob masalani aniq ifoda qiladi.

Bunga misol tariqasida Imom at-Termiziy asaridan salot (namoz) haqidagi hadislarini keltirish mumkin

3. Savol tarzidagi siyg'aga ega tarojum (at-tarojuma bi-siyg'atil-istifhom) - bu shunday holatki, bunda bob tarojumasi savol (istifhom) tarzidagi iboralardan tashkil topadi. Bu maslak Imom al-Buxoriy ijodida ko'proq va daqiqy uslubda qo'llanilgan, Imom at-Termiziyda esa nisbatan kam hollarda uchraydi. Ulamolarning fikricha, bu tarzdagi tarojumlar asosan ixtilofli va bahsli masalalarga doir bo'lib, masalan, Imom at-Termiziy o'z asarida keltirgan (namoz paytida nuhud (sajdadan turish) qanday bo'lishi kerak haqidagi bobga doir» ni ko'rsatish mumkin. Turli mazhablar (masalan, shofe'iylar va hanafiylar) o'rtasida ushbu masalada muayyan ixtilof bo'lib, bu haqda muallif ham o'z asarida ko'rsatib o'tgan.

4. Bob hadisdan iqtibos etib olingan tarojum yoki to'lig'icha hadisning so'zlari bobda kelgan tarojumda qisman yoki to'lig'icha rivoyat qilinadi. Bu fikrni Imom at-Termiziy odob haqida keltirgan bir hadisda yaqqol ko'rish mumkin. «Alloh atsni (aks urmoqni) xushlab, esnashni yoqtirmasligiga doir bob»da ushbu hadisni ixroj etadi. «Darhaqiqat, Alloh aksirishni xush ko'rib, esnashni yomon (karohatli) ko'radi. Shu tufayli agar biror kishi aks, ursa alhamdullilohi, deydi va uning bu so'zini eshitgan har bir kishi «Senga Allohning rahmati yog'ilsin» (yarhamuka Alloh) va hokazo deydi». Mana shu misoldan yaqqol ko'rinib turibdiki, ixroj qilinayotgan hadisdan bir qismi tarojumda keltirilgan. Ayni shu holni Imom al-



Buxoriyning asarida ham uchratish mumkin. Masalan, tib (tabobat) haqida «dardini bergan Alloh uning shifosini ham o'zi beradi bobidagi» hadisning so'zi aynan shu bobda ham ixroj qilingan.

5. Amrli masalaning boshlanishi va biror ishning paydo (zohir) bo'lishi haqida ogoh etuvchi tarojumlar. Imom at-Termiziy, shuningdek, al-Buxoriy biror ishning boshlanishidan darak beruvchi tarojumlarni keltiradi. Masalan, Imom at-Termiziy solat (namoz) haqida «Azonning boshlanishiga doir bob». Mana shu mavzuning qay tariqa boshlanishi haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga qamraydi. Shu sababli ular shariatning tarixiga doir ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lganligidan ulamolar, ilm toliblari va tadqiqotchilar uchun g'oyatda qimmatlidir. Ayni vaqtda shuni ham qayd etish kerakki, turli mazhablarga mansub ulamolar o'rtaidagi ixtilofli masalalar bo'yicha, xususan fiqhiy masalalarda Imom at-Termiziy o'z asarlarida alohida hadislarni dalillar vositasida boblar bilan keltirgan hollari ko'p uchraydi.

Arab tilida istinbotiy tarojumlar deb nomlanadigan boblarda mualliflar o'z kitoblariga kiritilgan masalalarga ularning mazmun va mavzularidan kelib chiqqan holda unvon (sarlavha)lar qo'yadilar. Bu holda sarlavha o'sha bobning mazmuniga ochiq-oydin mos bo'ladi. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad kitob muallifi muayyan bobda mavjud hadislar bevosita yetisha olmagan natijaga erishishdir. Shu bois ham muallif o'z fikr-mulohazasi yordamidagina ushbu maqsadga erishadi. Bu uslub Imom al-Buxoriy kitobida ko'p qo'llanilgan bo'lsa, Imom at-Termiziyda nisbatan kamroq qo'llanilgan.

Ayni vaqtda bu ikkala buyuk muhaddis ijodiyotida istinbotiy tarojumlarda mushtarak yo'l-yo'riqlar (maslaklar) mujassam bo'lganligining ham guvohi bo'linadi.

«Mursaliy tarojumlar» deb atalgan boblarda esa tarojumlar rivoyat etilgan bo'lsa-da, to'lig'icha zikr qilinmaydi va uning unvoni «bob» degan so'z bilan chegaralanadi. Imom at-Termiziy «al-Jomi'» asarida bu xildagi tarojumlar ikki so'z (ibora)da - «bob» va bob minhu (undan bob) bilan keltiriladi. Imom al-Buxoriy esa faqat bir siyg'a (ya'ni bob)ni qo'llash bilan chegaralangan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- Imom al-Buxoriy uslubiga ergashgan holda Imom at-Termiziy ham o'z kitobini avval boblarga bo'lgan holda tartib berib, so'ngra tarojumlarni al-Buxoriy oldin qo'llagan uslub va maslaklarga tayanib ta'lif etdi;
- Imom at-Termiziy o'z ustozlari Imom al-Buxoriydan g'oyatda ta'sirlangan holda uning ijodidan o'z «al-Jomi'» asari tasnifida foydalandi;
- Imom at-Termiziy asarida keltirilgan tarojumlarni idrok etish osonroq bo'lib, Imom al-Buxoriy asarida mukammal istinbot (chuqur tadqiq etish) ustunligi ko'zga tashlanadi;
- Imom al-Buxoriyning Abu Iso at-Termiziydan yana bir ustunligi tarojumlar yo'l-yo'riq (masolik)larining xilma-xilligi, ularda ko'p ilmiy va boshqa foydali jihatlarining aks etishidir;
- Imom at-Termiziy tarojumlarga mazkur bob mazmuniga dalil sifatida qaraydi, ammo Imom al-Buxoriy esa ularga (tarojumlarga) o'z fiqhi va ilmini ham ifoda etadi.

References:

1. "Quroni karim"
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent:Hilol-nashr nashriyoti,2019.



3. Muhammad ibn Ibrohim al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. –Misr / Shayx Muhammad Muhiddin Abdulhamid tahqiqi, 1410 h. (1990 m.) ikkinchi bosma.
4. Shayx Shamsuddinxon ibn Ziyovuddinxon. Sihhatu-sitta. Sharhlar haqidagi bobdan.
5. Ta'rifat Sayyid Sharif. –Istanbul:Matbaa Ahmad Komil,1317 h.
6. (Kolumbiya universiteti kutubxonalarida J7633 raqami bilan saqlanadi)
7. Muhammad ibn Is'hoq. Asomi mashoyix al-Buxoriy. – Riyoz: Maktaba al-kavsar,1411h. (1991 m).
8. Kamil Iskandar.Munjid fil-lug'a val-A'lam.–J:1. –Bayrut:Dar al-Mashriq, 2008.
9. Badriddin Ayniy.Umdat al-Qori fi sharh al-Buxoriy. –Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya,2001.
10. Muhammad ibn Ibrohim al-Buxoriy. Sahih Al-Buxoriyning muqaddimasidan.– Karachi.
11. Muhammad ibn Ibrohim al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih. – Toshkent. /Abdulg'ani Abdulloh tarjimasi, 1992 .
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. –J:1. –Toshkent: Movarounnahr nashriyoti,2003.
13. Said Azim Muhammad Ali. "Imom Buxoriy ta'rifi. –Toshkent:Cho'lpon nashriyoti, 1996.
14. Imom Buxoriy muhaddislar sultoni. – Toshkent,2004.
15. Sharq mash'ali. 1998-yil. 3-4 sonlari.
16. Imom al-Buxoriy saboqlari. 2002- yil. 4-son.
17. Imom al-Buxoriy saboqlari. 2003-yil. 1-son.
18. Imom al-Buxoriy saboqlari.2001-yil. 3-son.